

DAVLAT TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Toshkent viloyati Angren shahar

22-umumiy o'rta ta'lim maktabi davlat tili fani o'qituvchisi

Sherbayeva Ra'no Urinbayevna

***Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ta'lim sohasiga xususan, o'zbek tilini o'qitishdagi ahamiyati, zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi uchun xos axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni, ijodiy va texnologik madaniyatni shakllantirishdan iborat.*

***Kalit so'zlar:** kompyuter, dastur, pedagogik texnologiya, metodika, multimedia.*

“Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning yangi va samarali metodlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish” borasida katta ishlar qilinishi ko'zda tutildi. Va shu boisdan o'zbek tili va adabiyoti universitetida “O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari” fani o'quv dasturiga kiritildi. “O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari” fani o'zbek tili va adabiyotini o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ulardan foydalanish metodikasini talab darajasida o'rgatishga yo'naltirilgan. Fanni o'qitishdan maqsad – bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarini dars jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdir. Fanning vazifasi talabalarga o'quv mashg'ulotlari jarayonida qo'llaniladigan pedagogik dasturiy vositalar haqida,

aynan o‘zbek tili va adabiyoti darslari uchun tayyorlanadigan resurslarga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida, bu boradagi chet el tajribasi haqida ma‘lumot berish hamda talabalarda axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko‘nikmalarni, ijodiy va texnologik madaniyatni shakllantirishdan iborat. Ushbu “O‘zbek tili va adabiyoti ta‘limida zamonaviy axborot texnologiyalari” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba quyidagi natijalarga erishishi ko‘zda tutilgan:

- ✓ ta‘limda axborot texnologiyalari bo‘yicha tayanch tushuncha, atama va vazifalar;
- ✓ axborot-ta‘lim muhitining tarkibi va tuzilishi;
- ✓ axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmasining shakllanishida jahon tajribasi;
- ✓ axborot texnologilar dunyosida ilmiy va ta‘limiy tadqiqot ishlarning reformasi haqida tasavvurga ega bo‘lishi lozim;
- ✓ ta‘limida axborot texnologiyalarini tatbiq etishning ahamiyati;
- ✓ axborot texnologiyalari sohasida innovatsion baholash;
- ✓ masofaviy ta‘limni rivojlantirish sohasida asosiy loyihalar;
- ✓ axborot texnologiyalari bilan ishlash madaniyati;
- ✓ ta‘lim jarayonida interaktiv doska; bilishi va ulardan foydalana olishi kerak;
- ✓ zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tatbiq etgan holda pedagogik faoliyatni tashkil etish;
- ✓ multimedia darsliklarining turlari va tuzilishini bilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;
- ✓ o‘quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish;
- ✓ elektron ta‘lim resurslaridan oqilona, samarali foydalanish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

Bugungi kunda istalgan fan o'qituvchisining pedagogik dasturiy vositalarni yarata olishi va ularni mashg'ulotlarda unumli qo'llay olishi davr talabidir. O'zbek tili va adabiyoti darslarida foydalaniladigan elektron materiallarning sifati, samaradorligini oshirish yo'llarini o'rgatadigan yuqoridagi fan o'zbek tili va adabiyoti darslarining yanada yuqori saviyada tashkil etilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шайхисламов, Н. (2021). ТИЛДА ЛАКУНА МУАММОСИ ВА УНИНГ ЕЧИМИ. *Scientific progress*, 2(7), 1285-1290.
2. Шайхисламов, Н. (2021). ЎЗБЕК ТИЛИ АССОЦИАТИВ ЛУФАТИНИНГ ТУЗИЛИШИ ТЎҒРИСИДА МУЛОҲАЗАЛАР. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 20-25.
3. Khakimov, S. R., & Sharopov, B. K. (2023). Educational Quality Improvement Events Based on Exhibition Materials in Practical Training Lessons. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, 1(2), 5-10.
4. Yuvmitov, A., & Hakimov, S. R. (2021). Influence of seismic isolation on the stress-strain state of buildings. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 11(1), 71-79.
5. Шаропов, Б. Х., Хакимов, С. Р., & Рахимова, С. (2021). Оптимизация режимов гелиотеплохимической обработки золоцементных композиций. *Матрица научного познания*, (12-1), 115-123.
6. Ювмитов, А. С., & Хакимов, С. Р. (2020). ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СЕЙСМОИЗОЛЯЦИИ НА ДИНАМИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЗДАНИЯ. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 10(2), 14.
7. Hakimov, S., & Dadaxanov, F. (2022). STATE OF HEAT CONDUCTIVITY OF WALLS OF RESIDENTIAL BUILDINGS. *Science and innovation*, 1(C7), 223-226.
8. Yuldashev, S., & Hakimov, S. (2022). ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН ТЕБРАНИШЛАР ҲАҚИДА. *Science and innovation*, 1(A5), 376-379
9. Хакимов, С. (2022). АКТИВ ВА ПАССИВ СЕЙСМИК УСУЛЛАРИ ҲАМДА УЛАРИНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 30-36.
10. Khamidov, A. I., & Khakimov, S. (2023). Study of the Properties of Concrete Based on Non-Fired Alkaline Binders. *European Journal of Geography, Regional Planning and Development*, 1(1), 33-39.
11. Khamidov, A., & Khakimov, S. (2023). MOISTURE LOSS FROM FRESHLY LAID CONCRETE DEPENDING ON THE TEMPERATURE AND HUMIDITY OF THE ENVIRONMENT. *Science and innovation*, 2(A4), 274-279.